

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

Abdumutalov Muhammadsiddiq Qahramonjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimining kelgusi ta‘limlar uchun ahamiyati, o‘qituvchilar uchun yangicha dars usullaridan foydalanishlari kerakligi borasida tavsiyalar, bugungi zamon talabiga aylanayotgan xorijiy tillarni o‘qitishning boshlang‘ich ta‘limdan boshlash va yurtimizning ta‘lim tizimidagi xuddi shu masalalar borasida fikrlar yuritilgan

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, xorijiy tillar, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun, ko‘rgazmali qurollar,

Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘limning tayanchi ekanligi barchaga ma‘lum, albatta. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarning kelajakda munosib o‘rnini topa oladigan yetuk shaxslar bo‘lib yetishishlarida bugungi kun talabiga aylanib ulgurgan xorijiy tillarni chuqur bilish muhim o‘rin tutadi.

Respublikamizdagi joriy ta‘lim tizimida bir qator ta‘limiy qonun hujjatlarida ham bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Qolaversa, 1-sinfdan 4-sinfgacha bo‘lgan yosh oralig‘idagi o‘quvchilarga boshqalarga nisbatan chet tillarini yanada chuqurroq o‘rgatib, kelgusi sinflarga poydevor qurish maqsad qilingan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda boshlang‘ich ta‘lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Boshlang‘ich ta‘lim sinflari uchun o‘quv reja va dasturlar ishlab chiqilgan. O‘quv reja asosida ona tili, matematika, tibbiyot, tarix (tarixiy mavzudagi matnlar asosida), rus tili, tasviriy san‘at, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazilish belgilanagan” edi. Bugungi kundagi yangi qonunda esa shu fanlar orasiga xorijiy tillar, ya‘ni ingliz tilini mukammal tarzda o‘quvchilarga o‘rgatish belgilab qo‘yildi.

Xorijiy til samaradorligini oshiris, albatta, unda foydalaniladigan inovatsion dars usullaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Ya‘ni zamonaviy metodlar, axborot texnologiyasi vositalaridan. Bulardan:

1. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish orqali. Bu usuldan foydalanish o‘zgacha ahamiyat kasb etgan holda, o‘quvchilar ingliz tilidagi so‘zlarni eshitish bilan bir qatorda ana shu so‘zlarning rasmlarini ham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, “banana” – banan, va “apple” – olma so‘zlarini olsak. Bunda ikki meva nomini o‘qituvchi aytadi va o‘quvchilar bu mevalar va ularning ingliz tilidagi nomini eslab qoladilar. Lekin shu bilan bir qatorda, bananning sariq rangda, olmaning qizil rangda ekanligi bolalarda qo‘shimcha savol uyg‘otishi mumkin bo‘ladi. Va, albatta, qiziquvchan o‘quvchilar bu raglarni nomlarini ham

o'qituvchidan talab qilishlari mumkin yoki o'qituvchining o'zi ularga tushuntirishi mumkin. Bundan shu xulosani keltirib chiqarish mumkinki, bittagina mevaning rasmi orqali o'quvchilar uning nomini, rangini, ta'mini va hokazolarni bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Sinf muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va harakatli o'yinlar. Bu usulda "moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Dars boshlanishidan avval sinfxonada yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuylaydilar va uning ohangiga mos raqsga tushadilar. Bu o'z-o'zidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishlariga hamda qo'shiq so'zlarini tez yod olishlariga yordam ber adi. Ana shunda o'qituvchi maqolga mos ravishda: bir o'q bilan ikki quyonni urgan" bo'ladi.

3. Tana harakatlari orqali dars o'tish. Bu usulda o'qituvchi aktyorlik mahoratini ishga solgan holda bolalarga turli predmetlarning ingliz tilidagi nomini aytadilar. Ana shunda o'qituvchi tomonidan nomlangan va ishoralar orqali ko'rsatilgan predmetni o'quvchilar tasavvur qilgan holda nomini tez topa oladilar. Yoki qo'l ishoralari orqali o'qituvchi o'quvchiga buyruq berganda (masalan, doskaga chiq, o'tir, tur va h.) o'quvchiga bu harakatlarning tarjimasini tushuna olishi oson bo'ladi.

Har bir ishning rivojlanishida bajarish tartibi va bajaruvchining tajribasi ahamiyatga egadir. Xususan, yuqorida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilida o'tiladigan yangicha metoddagi dars usullarini sanab o'tilgan bo'lsa, quyida o'qituvchining kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun bir qancha tavsiyalarni berib o'tishimiz mumkin:

- Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash. Bu yo'l orqali tarbiyachi, ya'ni o'qituvchi bolalarning qalbiga osongina yo'l topa oladi. Ularga muloyimlikni his ettirib, savol-javobga kirishishi lozim.

- Bolalarning psixologiyasiga asoslanib savollarni berishi kerak bo'ladi. Bu o'qituvchidan bolaning o'qish darajasiga qarab savol tayyorlab kelishini talab etadi.

- O'tilgan mavzulardan ko'proq so'rash lozim. Bu o'quvchidagi hayajonni asta-sekin yo'qolishiga olib keladi. Ya'ni o'quvchida yangi mavzuni o'rganish uchun ko'nikma hosil bo'lgunga qadar biroz hayajonli vaziyat bo'ladi. Ana shu holatni bartaraf etish uchun ham boladan avvalgi darslarda o'rgatilgan va u biladigan savollardan so'rab turish o'qituvchidan talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bugungi zamonaviy dunyoga munosib yosh avlodni har tomonlama mukammal holda yetkazib berish o'qituvchilardan talab etiladigan eng ustuvor vazifa sanaladi. Eng asosiysi, farzandlarimizni jahon tillarini mukammal o'rganishlari, Vatanimizning nomini yer yuziga tanitish uchun muhim debocha bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.M atnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. «Fan va texnologiya».2018.
2. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. (TDPU) . Professor-o‘qituvchilar davt – talabi.// Toshkent. Pedagogika. 2015.

Internet ma’lumotlari:

1. www.uz.m.wikipedia.org
2. www.blog.xabar.uz